

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 9 (3) - 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 9 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;  
Тайланова Шоҳида Зайниневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиги.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик  
Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:  
[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Mamajonov Rahimjon Akramovich*

“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O’RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHЛИLI ..... 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*

МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ..... 17-22

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Tursunov Bekmuhammad Om'onovich*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҶОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ..... 23-34

*Kurpajaniidi Константин Иванович*

ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ..... 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*

O’ZBEKİSTONDA CHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHЛИLI ..... 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛЬТЕРИЯ ҲИСОБИННИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 52-62

*Rўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҶАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АҲБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ..... 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*

TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 74-80

*Davronov Istamxo’ja Olimovich*

МЕНМОНХОНА XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA SIFATINI BAHOLASH USULLARI ..... 81-86

*Маматов Баҳадир Сафаралиевич*

ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ..... 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиiddин ўғли*

КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТҮЛАШ ТАРТИБИ ..... 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*

МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i>	
KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	117-127
<i>Кодиров Азизжон Анварович</i>	
ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ .....	128-136
<i>Эшонқулов Акмал Кудратович</i>	
ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ ЖАЛЬ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	143-150
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i>	
YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI .....	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR .....	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i>	
BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI .....	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i>	
UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI .....	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i>	
СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i>	
ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI .....	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich</i>	
JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i>	
XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	198-202
<i>Azimov Sherzod</i>	
PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY .....	203-207
<i>Абдурахмонович Ҳасан Иброҳимович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	208-216

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Kuliyeva Dilshoda Aljon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI ..... 217-223

*Tешабаева Диляфузә Муминовна, Абдухалирова Гулбаҳор Карабаевна  
ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА*

ЯСАЛИШИ ..... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI..231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ..... 242-246

*Vositov Otobek Toxirjonovich*TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIK  
GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ..... 247-253*Нодир Раҳматуллаев*

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ..... 254-260

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ХУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li*O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI  
INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 271-276**13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ..... 277-281*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH  
(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ..... 282-287*Kadirov Ramz Turabovich*TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEKNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI  
MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) ..... 288-295*Khabiba Madaminovna Jurabekova*THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE  
COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ..... 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i>	
KLASTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH MASALALARI .....	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI .....	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i>	
BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH .....	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i>	
BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI .....	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i>	
BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH .....	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i>	
O'ZBEKİSTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI .....	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna</i>	
AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH .....	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i>	
EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS .....	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i>	
OLIY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALТИRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI .....	363-367
<i>Хусаинова Лейла Юнусова</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ .....	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
MATEMATIK KREATIV TAVSIFDAGI MASALALARINING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI .....	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i>	
PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI .....	380-384

*Eshnazarov Murod Karimovich*

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI ..... 385-391

**Umarova Zaxro Abduraxim qizi**

Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Matematika va ta'limga axborot texnologiyalari kafedrasи  
dotsent v.b., pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

## **TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH (THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish, talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda nostandart fikrlash ko'nikmalarining ahamiyati yoritib berilgan

**Tayanch so'zlar:** mustaqil ta'lim, mustaqil tayyorgarlik, nostandart fikrlash

**Umarova Zakhro Abdurakhim qizi**

Tashkent State Pedagogical University, Associate Professor of  
the Department of Information Technologies in Mathematics and  
Education, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

## **THE ROLE OF THE NON-STANDARD THINKING (THINKING OUT OF THE BOX) IN DEVELOPING STUDENTS' SELF-PREPARATION**

**Abstract.** This article highlights the importance of non-standard thinking skills in the effective organization of independent education of students and the development of self-preparation of students.

**Keywords:** self-learning, self-preparation, non-standard thinking, thinking outside the box.

**Умарова Захро Абдурахим кизи**

Ташкентский государственный педагогический университет,  
Доцент кафедры информационных технологий в математике и  
образовании, доктор философских наук (PhD) педагогических наук

## **РОЛЬ НЕСТАНДАРТНОГО МЫШЛЕНИЯ (THINKING OUTSIDE THE BOX) В РАЗВИТИИ САМОПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность навыков нестандартного мышления в эффективной организации самостоятельного обучения студентов и развитии самостоятельной подготовки студентов.

**Ключевые слова:** самостоятельное обучение, самостоятельная подготовка, нестандартное мышление

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N37>

**Kirish.** Bugungi kunda mehnat bozori va ish beruvchi tomonidan qo'yilayotgan asosiy talab bo'lajak mutaxassis kadrning doimo o'z ustida ishlashi va o'zini – o'zi rivojlantirib borishi hisoblanadi. Bu bo'lajak mutaxassisning raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishiga olib keladi. Shunday ekan, mustaqil ta'lim nafaqat oliv ta'lim bilan birgalikda, balki, undan keyin ham uzlusiz ravishda davom ettirilishini hozirgi davr taqozo etmoqda. Bejizga, mamlakatimizda ham mustaqil ta'limga alohida e'tibor berilmayapti. "Individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilar ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish", shuningdek, "talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish", "o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" [1] kabi ustuvor vazifalar O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan bo'lib, ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish orqali raqamli ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytiriladi.

Mustaqil ta'lim – bu insonlarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan insonning o'zidan boshlanadigan va uning o'zi tomonidan boshqariladigan ta'lim shaklidir. Mustaqil ta'lim odatda maktab yoki universitet kabi rasmiy ta'lim muassasasida hamda undan tashqarida ham sodir bo'ladigan ta'limga ishora qiladi.

Lekin afsuski, mustaqil ta'lim barcha uchun birdek oson kechavermaydi. Ayrim talabalar mustaqil ta'lim olish uchun o'zlarida yetarli kuch ya'ni, motivatsiya topa olmasalar, ayrimlari o'z mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarish uchun yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega emasliklari talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda va o'quv jarayoni sifatini oshirishda talabalarning ijodiy faoliyat yuritishi va ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan mustaqil ta'lim jarayoni alohida o'rinn tutadi. Sababi "o'z mehnati bilan olingen bilim juda katta qiymatga ega. Shunday qilib, o'qitishning muvaffaqiyati talabalarning bilim olishga bo'lgan munosabati, bilim olishga intilishi, bilim, ko'nikmalarni ongli ravishda va mustaqil ravishda o'zlashtirishi bilan belgilanadi" [2].

Zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim talabalarning mustaqil ravishda o'quv materiallarini izlashda ijodiy izlanishni, ularni shunchaki yod olish emas, balki anglanishni va dars mashg'ulotlaridagi o'quv-bilim faoliyatining samaradorligini oshirishning turli shakllarini ta'minlaydi.

Bugungi kunga kelib, mustaqil ta'lim oliv ta'lim tashkilotlari talabalardida o'quv materialini ijodiy va samarali qabul qilish va tushunish uchun zarur ma'lumotlarni mustaqil izlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan; auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarida talabalarning bilish faoliyatining turli – axborot va ma'lumotlarni tahlil qilish, ta'lim vaqtini rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish; ta'lim-tarbiya ishlarni samarali va oqilona tashkil etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan shakli sifatida qaraladi[3].

Tadqiqot ishimiz doirasida biz mustaqil ta'lim tushunchasini quyidagicha talqin etdik: mustaqil ta'lim – bu maxsus ajratilgan vaqtida tashkil etilgan, o'qituvchi tomonidan belgilangan didaktik maqsadlar (yangi ma'lumotlarni izlash, ularni anglash, bilim olish, avvalgilari bilan umumlashtirish, tizimlashtirish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish)ga erishish borasida amalga oshiriladigan talabalarning har qanday tizimli tashkil etilgan ta'limiy faoliyatidir[3].

Tadqiqot ishimiz doirasida tahlil etilgan adabiyotlarga asoslanib, aytish mumkinki, mustaqil ta'limga berilgan ta'riflar shaklan turlicha bo'lsada, ular mazmunan bir xildir. Ularning barchasida, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarishda asosan ularning o'zi tomonidan tashabbus ko'rsatilishi, mustaqil ta'lim maqsadlarini belgilanishi, o'zlariga maqbul va oson bo'lgan o'rganish uslublari va vositalarini tanlay olishi, umuman olganda ta'lim jarayonini boshqarishi nazarda tutiladi.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etish va boshqarish uchun talaba shaxsidan ko'plab ko'nikmalar talab etiladi, xususan, ma'lumotlarni izlash, ularni saralash, tanqidiy baholash, kreativ va nostandard fikrlash va h.k.

Pedagogika va psixologiya sohasida tadqiqot olib borgan ko'plab olimlar tomonidan talabalarni mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining roli atroflicha yoritilgan. Xususan, "Ijodiy fikrlashning Torrens testlari" muallifi P.Torrance tomonidan olib borilgan tadqiqotlar orqali mustaqil ta'limni rivojlantirishda divergent fikrlash, g'oyalar yaratish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining muhimligi ta'kidlangan.


R.Sternberg insonning aql-zakovati va ijodkor(kreativ)ligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, inson aql-zakovatini uch qism: analitik, amaliy va kreativ aql-zakovatdan iborat degan g'oyani ilgari surgan.

L.Silverman iqtidorli ta'lim oluvchilarining ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, J.Hattie ta'lim oluvchilarining mustaqil ta'limi va akademik muvaffaqiyatida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlovchi fikrlarni bildirgan.

Shu kabi bir qancha tadqiqotlar mustaqil ta'lim va talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish sohasida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining rolini oshirishda katta hissa qo'shgan bo'lsada, lekin, mustaqil ta'limda "nostandard fikrlash ko'nikmalari" tushunchasi va uning talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishdagi roli yetarlicha tadqiq etilmagan.


"Thinking outside the box" (nostandard fikrlash) – "qutidan tashqarida fikrlash" konsepsiysi mazmunini tushunish uchun 70-80 yillardagi o'sha mashxur "to'qqiz nuqta" boshqotirmasidan foydalanish mumkin. Sababi, aynan shu boshqotirma orqali tom ma'noda "qutidan tashqarida fikrlash" nimani anglatishini vizual tarzda ko'rish mumkin.

"To'qqiz nuqta" klassik boshqotirmasiga ko'ra: quyida chizilgan (1-rasm) to'qqizta nuqtani to'rttadan ko'p bo'lмаган to'g'ri chiziq orqali birlashtirish kerak. Bunda to'g'ri chiziqlar uzuksiz bo'lishi talab etiladi, ya'ni chizishni boshlagach qalamni qog'ozdan ko'tarmaslik kerak bo'ladi.



1-rasm. “To‘qqiz nuqta” klassik boshqotirmasi


Mazkur boshqotirmani yechishda ko‘pchilik tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolik bu nuqtalar orqali xayoliy hosil qilingan qutidan chiqib ketmagan holda to‘g‘ri chiziqlarni uzulishlarsiz chizishga urinishdir. To‘qqizta nuqtaning bu tartibda joylashuvi muayyan an‘anaviy bilimlarga tayangan holda insonlarning vizual tasavvurida quyidagi ko‘rinishdagi qutini hosil qiladi(2-rasm).



2-rasm. “To‘qqiz nuqta” klassik boshqotirmasidagi hayoliy quti

Natijada esa ular mazkur qutidan chiqmagan holda boshqotirmani yechishga urinishadi. Lekin, boshqotirma ko‘rsatmasiga ko‘ra buni qilish, ya’ni qutidan chiqib ketmaslik borasida hech qanday talab yo‘q.

Mazkur holatdan xulosa qilish mumkinki, agar inson o‘z tahminlari va an‘anaviy qarashlari asosida yaratilgan “quti ichida” fikrlasa, muammoni hal eta olmaydi. Qachonki u mazkur “qutidan tashqarida” fikrlashni boshlar ekan muammoning yangi qirralarini ko‘rib, uning alternativ yechimlarini topishning ko‘proq imkoniyatlari paydo bo‘ladi va muammoni hal qilish osonlashadi.



3-rasm. “To‘qqiz nuqta” klassik boshqotirmasining alternativ yechimlari

Talabalarning nostandard fikrlash ko‘nikmalari amaliyotdagи an‘anaviy fikrlash shakllariga qarshi turishga tayyorlikni talab qiladi va bu nafaqat mustaqil ta‘lim jarayonida, balki, umrbo‘yi ta‘lim olishda ham qo‘l keladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Mustaqil ta‘lim jarayonida talabalarning nostandard fikrlash (thinking outside the box) ko‘nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Sababi, mustaqil ta'lif jarayoni shunday murakkab jarayonki, talaba mustaqil ta'lif jarayonida biror to'siq yoki muammoli vaziyatga duch kelsa, nostonart fikrlashi orqali ixtiyoriy qiyin vaziyatdan chiqish maqsadida noizchil, hattoki mantiqsiz usullar orqali ham noodatiy, yangi va eng maqbul yechimlarni izlab topa oladi.

Shuningdek, talabalarning nostonart fikrlash ko'nikmasi mustaqil ta'lif jarayonida samarali bo'lgan metodlarni tanlash, hattoki ishlab chiqishda ham as qotadi. Misol uchun, talaba xorijiy tilni mustaqil o'rganishda yangi so'zlarni an'anaviy lug'at usulida yodlashga qiynalayotgan bo'lsa, nostonart fikrlash orqali kartochkalar usulini yoki boshqa biror innovatsion usulni tanlab olishi, hattoki o'zining mualliflik metodlarini yaratishi ham mumkin.

Talabalarning nostonart fikrlash ko'nikmasi ularni muammolarga o'ziga xos nuqtai nazardan yondashishga va noan'anaviy yechimlarni ko'rib chiqishga undaydi. Bunday fikrlash ularga ijodiy fikrlash va o'rganish muammolariga innovatsion yondashuvlarni topish imkonini beradi. Nostonart fikrlashni o'zlashtirgan holda, talabalar muammoni yaxshiroq hal qila oladilar va murakkab vazifalar va vaziyatlarda samarali harakat qilishlari mumkin.

Nostonart fikrlash mustaqil ta'lif jarayonida kirishimlilik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bu talabalarni an'anaviy yondashuvlarni qabul qilmay, bilimlarni tushunish va qo'llashning muqobil usullarini o'rganishga undaydi. Kirishimlilik va moslashuvchanlik talabalarga turli xil o'quv vaziyatlariga moslashishga va o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari va sharoitlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lif olish strategiyalarini o'zgartirishga imkon beradi.

Nostonart fikrlash talabalarda qiziquvchanlik va izlanish istagini kuchaytiradi. Bu talabalarni an'anaviy o'quv dasturidan tashqari turli xil kurslar va ulardagi ta'lif resurslarini o'rganishga undaydi. Qiziquvchanlikka asoslangan mustaqil ta'lif natijasida talabalar bilimning faol izlovlchilariga aylanadilar va mavzu bilan chuqurroq tanishish istagini bildiradilar. Ma'lumki, inson o'ziga ko'proq qiziq bo'lgan, uning shaxsiy qarashlariga yaxshiroq mos keladigan, u uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi[3].

Nostonart fikrlash ko'nikmasi talabalarga o'z ta'lif jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Bu ularni o'z ta'lif maqsadlarini belgilashga, shaxsiylashtirilgan ta'lif yo'llarini yaratishga va ularning qiziqishlari va o'rganish uslublariga mos keladigan resurslar va ma'lumotlarni faol ravishda izlashga undaydi. Nostonart fikrlash talabalarga o'z ta'limi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan, mustaqil tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan ta'lif oluvchilar bo'lishga yordam beradi.

Nostonart fikrlash tanqidiy fikrlash bilan chambarchas bog'liq, chunki nostonart fikrlash ularning ma'lumotni tanqidiy baholash, noto'g'ri fikrlarni aniqlash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini oshiradi. Ushbu tanqidiy fikrlash qobiliyati to'plami nafaqat talabalar mustaqil ta'limida, balki, umrbo'yи ta'lif olishi uchun ham zarurdir.

Shuningdek, nostonart fikrlash talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bu ularni yangi g'oyalarni yaratishga, bir-biriga bog'liq bo'limgan tushunchalarni bog'lashga va qiyinchiliklarga o'ziga xoslik bilan yondashishga undaydi. Innovatsiya va ijodkorlikni rivojlantirish orqali nostonart fikrlash talabalarni hozirgi zamon ish beruvchi talablari va jamiyatning o'zgaruvchan talablariga moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

Demak, mustaqil ta'limda nostonart fikrlash ko'nikmasi quyidagi afzalliklarga ega:

- kreativlikni oshiradi, natijada talaba mustaqil ta'limda duch keladigan muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil o'rganish jarayonlarida har qanday masalaga innovatsion va ijodiy yondashadi;
- o'ziga xos va takrorlanmas g'oyalarni ishlab chiqishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida mustaqil ta'lim jarayoniga foyda keltirishi mumkin bo'lgan noyob usullar va original g'oyalarga olib keladi;
- nostonart fikrlash talabalarning dunyoqarashini oshirib, yangi imkoniyatlar va samarali yechimlarni topishga olib keladi;
- talabaning nostonart fikrlash ko'nikmasi mustaqil ta'lim jarayonida turli xil bilim manba (o'qish, tajriba orqali o'rganish va h.k.) laridan foydalanishga undaydi;
- mustaqil ta'lim jarayonida talaba olgan bilimlarini nostonart vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Xulosa.** Talabalarda shakllantirilgan nostonart fikrlash ko'nikmasi orqali yangi g'oyalalar, kreativ o'rganish uslublari, muammoning samarali yechimlarini izlab topish, yangi vaziyatlarga oson moslashish, eng asosiysi motivatsiyani oshirishga, natijada esa ularni samarali o'rganuvchi bo'lib yetishishlarini ta'minlash maqsadida mustaqil tayyoragarligini rivojlantirishga erishiladi. Bularning barchasi birgalikda mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sodn "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Миронова Е.Д. Современные информационные технологии как средство повышения эффективности обучения // Инновационное образование и экономика. – Москва, 2015. – Т. 1. – № 19.
3. Umarova Z.A. Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish: p.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. –T.: 2021. -155 b.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 9 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).